

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# №11

2025  
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari  
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 132 sahifa.  
2025-yil, noyabr

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                  |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI ..... | 22  |
| <i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i>                                                                                                     |     |
| XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR .....                                                                      | 30  |
| <i>Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi</i>                                                                                                      |     |
| O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI .....                                                                   | 35  |
| <i>Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna</i>                                                                         |     |
| QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....            | 41  |
| <i>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</i>                                                                                                         |     |
| SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH .....                                                                      | 48  |
| <i>Xodjimatrov Xamidullo Mamirjonovich</i>                                                                                                       |     |
| TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....                                                                  | 53  |
| <i>Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich</i>                                                                                                          |     |
| KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....                            | 59  |
| <i>Axatova Shahnoza</i>                                                                                                                          |     |
| SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH .....                                                                                             | 63  |
| <i>Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna</i>                                                                                                      |     |
| РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....                                                                           | 69  |
| <i>Хошимова Камилла Навфал қизи</i>                                                                                                              |     |
| РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .....                                          | 79  |
| <i>Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна</i>                                                                                  |     |
| АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....                                                                                                    | 86  |
| <i>Файзиев Умуркул Шухратович</i>                                                                                                                |     |
| TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI .....                                               | 97  |
| <i>Jalilov Jamshid G'anjionovich</i>                                                                                                             |     |
| СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....                                                        | 103 |
| <i>Ўролова Севара Бехзод қизи</i>                                                                                                                |     |
| BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                               | 109 |
| <i>Narziyev Hayotjon Azamatovich</i>                                                                                                             |     |
| NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudjetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....                                             | 115 |
| <i>Allakuliyev Akmal Baltayevich</i>                                                                                                             |     |
| AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI .....                                        | 120 |
| <i>Parpiyev Jaxongir Iloxomjonovich</i>                                                                                                          |     |
| YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI .....                                                               | 126 |
| <i>Xalikov S. X.</i>                                                                                                                             |     |

# YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI

**Xalikov S. X.**

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mamlakatda “yashil” iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan islohotlar global tendensiyaning ajralmas qismiga aylanmoqda. Global moliya bozorida “yashil” sektorning faollashuvi darajasi oshib bormoqda va bu jarayon yashil investitsiyalar yo'nalishida tobora rivojlanmoqda. Yashil moliyani rivojlantirishning umumiy istiqbollari, yo'nalishlari va uning nazariy jihatlarini to'laqonli aniqlash hamda amaliy tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. “Yashil” moliya tushunchasining nazariy asoslari o'rganilib, uning mazmuni va mohiyati yoritiladi. Shuningdek, “yashil” moliya vositalari va institutlarining kuchli hamda zaif tomonlari aniqlanadi. Yashil moliyaviy vositalardan foydalanish nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik hamda iqlim muammolarini hal etish uchun ham mo'ljallangan. Maqolada, shuningdek, yashil investitsiyalar tahliliga ham alohida e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, yashil moliya, yashil investitsiyalar, past uglerodli iqtisodiyot, ekologik mas'uliyatli sarmoya, yashil obligatsiyalar, moliyaviy tizimni yashillashtirish, yashil texnologiyalar, uglerod krediti.

**Abstract.** In the country, reforms aimed at the sustainable development of the “green” economy are becoming an integral part of the global trend. The level of activity in the “green” sector of the global financial market is increasing, and this process is steadily advancing in the direction of green investments. It is of great importance to comprehensively identify and practically analyze the general prospects, directions, and theoretical aspects of the development of green finance. The theoretical foundations of the “green” finance concept are studied, and its content and essence are explained. In addition, the strengths and weaknesses of “green” financial instruments and institutions are identified. The use of green financial instruments is intended not only to generate economic profit but also to protect the environment and address ecological and climate-related issues. The article also pays special attention to the analysis of green investments.

**Keywords:** green economy, green finance, green investments, low-carbon economy, environmentally responsible investment, green bonds, greening of the financial system, green technologies, carbon credit.

**Аннотация.** В стране реформы, направленные на устойчивое развитие «зеленой» экономики, становятся неотъемлемой частью глобальных тенденций. Активность «зеленого» сектора на мировом финансовом рынке растет, и этот процесс все больше развивается в направлении зеленых инвестиций. Определение общих перспектив, направлений и теоретических аспектов развития зеленых финансов, а также их практический анализ имеют важное значение. Изучены теоретические основы понятия «зеленые финансы», раскрыто его содержание и сущность. Кроме того, определены сильные и слабые стороны инструментов и институтов «зеленого» финансирования. Использование зеленых финансовых инструментов направлено не только на получение экономической выгоды, но и на защиту окружающей среды, решение экологических и климатических проблем. В статье также уделено особое внимание анализу зеленых инвестиций.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, зеленые финансы, зеленые инвестиции, низкоуглеродная экономика, экологически ответственное инвестирование, зеленые облигации, озеленение финансовой системы, зеленые технологии, углеродные кредиты.

## KIRISH

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida “iqtisodiyot tarmoqlarida ‘yashil’ texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiyalarni va xavfsiz kimyoviy moddalarni qo'llashga o'tish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish” [1], shuningdek, “yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish” [2] masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Xususan, iqtisodiyot tarmoq va sohalariga kiritilayotgan loyihalarning moliyaviy manbalari yetarlicha shakllanmagani, moliyalashtirish mexanizmlaridagi cheklovlar iqtisodiyot samaradorligini oshirish masalasini eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylantirmoqda. Shu sababli iqtisodiyot tarmoq va sohalariga yashil investitsiyalarni faol jalb etish, yangi yashil investitsiya manbalarini shakllantirish hamda yashil texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish masalasi bugungi kunda dolzarb vazifa sifatida e'tirof etilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan “yashil” moliyalashtirish tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan bo'lsa-da, mahalliy olimlar tomonidan bu masala hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Ilmiy manbalarga ko'ra, birinchi bo'lib Richard Sandor 1992-yilda Kolumbiya universitetida dars berish jarayonida “yashil moliya” atamasini qo'llagan va unga mualliflik ta'rifi bergan. R. Sandorning fikricha, “yashil moliya” — iqlim o'zgarishiga to'sqinlik qiladigan loyihalarni moliyalashtirishga ustuvorlik berish orqali atrof-muhitga issiqxona gazlari chiqishini kamaytirish evaziga barqaror va ekologik toza iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan asosiy mexanizm sifatida qaraladi [3].

Xorijlik iqtisodchi olimlardan S. Kosla va boshqalar “yashil moliyalashtirish manbalari barqaror rivojlanish, ekologik mahsulotlar, sanoatning ifloslanishiga qarshi kurashish, oqava suvlarni tozalash, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish hamda iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish yo'nalishlariga qaratilgan loyiha va tashabbuslarga investitsiya sifatida kiritiladi”, deya ta'kidlaydilar [4].

M. Gxoul ilmiy qarashlariga ko'ra, “yashil moliya” — moliya sanoati, atrof-muhit va iqtisodiy o'sishni o'zaro bog'lovchi muhim bo'g'indir [5].

N. Lindenberg esa o'z izlanishlarida quyidagicha ta'rif beradi: “yashil moliyalashtirish — bu yashil investitsiyalar, ular bilan bog'liq davlat siyosati va moliya tizimi bo'g'inlarining yig'indisidir” [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlar A. Vaxabov va Sh. Xajibakiev “yashil moliyalashtirish atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni hisobga oluvchi va ekologik barqarorlikni ta'minlashni nazarda tutuvchi investitsiyalash hamda kreditlashning barcha shakllarini qamrab oladi”, degan ta'rifni keltirgan [7].

Mahalliy tadqiqotchilardan S. Po'latovanning fikricha, “yashil moliya” — ekologik manfaatlarga va kengroq ma'noda ekologik barqarorlikni rivojlantirishga hissa qo'shadigan sarmoyadir. Yashil moliya banklar, mikrokredit tashkilotlari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlari orqali davlat, xususiy hamda notijorat sektorlaridan moliyaviy oqimlarni barqaror iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirishga xizmat qiladi [8].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, IMF, OECD), O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika agentligi hisobotlari hamda ilmiy maqolalardan olingan. Tahlil usullari sifatida qiyosiy tahlil, korrelyatsion baholash, trend tahlili va deduktiv yondashuv qo'llanilib, yashil moliyalashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri empirik asosda baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi konsepsiyasi doirasida mualliflik tadqiqotida “yashil” moliyalashtirish mexanizmining mazmuni, uning tuzilishidagi an'anaviy moliya mexanizmidan farqlari ko'rsatiladi hamda unga yangi, qo'shimcha elementlarni kiritish zarurligi asoslanadi. O'rganilgan ilmiy va nashr qilingan iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mexanizmning ko'plab ta'riflari uchraydi. Ularning barchasini ikki asosiy jihat bo'yicha farqlash mumkin.

Birinchidan, moliyaviy mexanizm shakllanishi va undan foydalanish darajasiga ko'ra milliy (makro) hamda korxona darajalarida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu tadqiqotda iqtisodiyot tarmoqlari samaradorligini oshirishda yashil iqtisodiyotni barpo etish va uni moliyalashtirish mexanizmi global, milliy hamda qisman korporativ darajada o'rganilgan.

Ikkinchidan, moliyaviy mexanizm elementlarining yig'indisi sifatida uni qo'llash usullari, vositalari, dastaklari, me'yoriy-huquqiy, axborot va uslubiy ta'minoti bilan tavsiflanadi. Aynan mazkur elementlar to'plami mualliflar tomonidan an'anaviy tarzda moliyaviy mexanizm tarkibiga kiritiladi. Tadqiqot esa yuqoridagilardan tashqari kengaytirilgan va takomillashtirilgan elementlar to'plamini taklif etadi. Ushbu elementlarning mazmuni ko'plab ilmiy manbalarda yoritilganligi bois, quyida farqli xususiyatlarga ega bo'lgan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi tahlil qilinadi.

Moliyaviy vositalar yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmining muhim tarkibiy qismidir. U harakatlar to'plami sifatida iqtisodiy natijalarning ekologik maqsadlarga muvofiqligini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Bular davlat tomonidan tartibga solish choralari – valyuta kurslari, foiz stavkalari, narx strategiyasi va boshqa asosiy

vositalarni o'z ichiga oladi. Masalan, valyuta kurslari xalqaro savdo va investitsiya oqimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; ularni o'zgartirish yoki boshqarish ekologik barqaror amaliyotlarni rag'batlantirishi yoki, aksincha, susaytirishi mumkin. Foiz stavkalari esa qarz olish xarajatlari va investitsiya qarorlariga bevosita ta'sir etuvchi kuchli dastak bo'lib, iqtisodiy faoliyatni yashil tashabbuslarga yo'naltirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [10, 11, 12]. Narxlarni belgilash vositalari ishlab chiqarish, tovar va xizmatlarning haqiqiy ekologik xarajatlarini aks ettirishda muhim o'rin tutadi hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi iste'mol modellarini shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, moliyaviy vositalar moliya bozorlari orqali yashil investitsiyalar va barqaror iqtisodiy rivojlanish tashabbuslarini rag'batlantirishga yo'naltirilgan moliyaviy aktivlar hamda majburiyatlarni keltirib chiqaruvchi operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Qimmatli qog'ozlar, valyutalar, kreditlar va shunga o'xshash instrumentlar ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus ishlab chiqiladi. Masalan, yashil obligatsiyalar qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasi yoki barqaror qishloq xo'jaligi tashabbuslari kabi atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtirishni ta'minlaydi [9]. Xuddi shuningdek, yashil jamg'armalar ham ekologik toza loyihalar yoki kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash uchun turli manbalardan shakllangan investitsiyalarni birlashtiradi.

Moliyalashtirish manbalarini izlash, yuqori xavfli, past uglerodli loyihalarga sarmoya kiritishga tayyor investorlarni jalb etish, uzoq muddatli o'zini oqlash davriga ega loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ishtirokchilar o'rtasidagi innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish, yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish va energiyaga o'tish jarayonida resurslarni safarbar etish Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida yashil moliyalashtirish — jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot manfaatlarini ko'zlab, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida davlat byudjeti, xususiy sektor, xalqaro tashkilotlar mablag'lari hamda moliya bozorlari orqali jalb etiladigan moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan yashil tashabbusli faoliyat va loyihalarni moliyalashtirish jarayonidir.

Ayni paytda respublikada chet el investitsiyalarini, jumladan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag'larini jalb etish orqali aholining hayot darajasi hamda sifatini oshirishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mamlakat Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari kabi nufuzli xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik jarayonida xalqaro loyihalarni amalga oshirishda yetarli tajriba to'plab bormoqda (1-jadval).


**1-jadval. O'zbekistonda 2020-2024-yillarda yashil moliyalashtirish dinamikasi, mlrd.so'm.**

| Yil  | Asosiy kapitalga investitsiyalar | Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | AMMQ va TROF investitsiyalarning jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi, foizda |
|------|----------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 2020 | 210195,1                         | 356,1                                                                                                                                 | 0,2                                                                                                  |
| 2021 | 239552,6                         | 569,8                                                                                                                                 | 0,2                                                                                                  |
| 2022 | 266240,0                         | 897,3                                                                                                                                 | 0,3                                                                                                  |
| 2023 | 356071,4                         | 1056,6                                                                                                                                | 0,3                                                                                                  |
| 2024 | 507490,2                         | 1923,4                                                                                                                                | 0,4                                                                                                  |

1-jadval ma'lumotlariga tayanib, iqtisodiyot tarmoqlariga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2020–2024-yillar oralig'ida ularning hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Biroq iqtisodiyotda "yashil" moliyalashtirish, ya'ni atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi ortib borgan bo'lsa-da, ularning jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibidagi ulushi 2020–2024-yillarda atigi 0,2–0,4 foizni tashkil etgan, xolos.

Glazgoda o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (BMT IO'DK) Tomonlar konferensiyasining 26-sessiyasida (TK–26) O'zbekiston hukumati 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yildagi darajaga nisbatan 35 foizga qisqartirish bo'yicha muhim maqsadini e'lon qilgan. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun so'nggi besh yil davomida bir qator strategik hujjatlar va qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan.

Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil oktabr oyidagi PQ–4477-son qarori bilan 2019–2030-yillarda "Yashil iqtisodiyotga o'tish" bo'yicha Milliy strategiya tasdiqlangan hamda "Yashil iqtisodiyot bo'yicha idoralararo kengash" tashkil etilgan (1-rasm).



1-rasm. XTTB va XTA tomonidan 2021- 2024-yillar mobaynida sohalar doirasida ajratilgan kredit hajmlarining ulushi (mln. AQSH dollarida)

Strategiyaning asosiy maqsadi — mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga erishish, issiqxona gazlari chiqindilari darajasini kamaytirish hamda iqlim va ekologik barqarorlikni ta’minlovchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyot modelini shakllantirishdan iborat.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda ekologik muammolar va iqlim o’zgarishlari bilan bog’liq masalalarni e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Bu jarayonlarning milliy hamda xalqaro miqyosdagi ahamiyati nihoyatda katta bo’lib, u Yer sayyorasining deyarli barcha aholisi hayotiga ta’sir etadi. Insoniyat jamiyatining ekologik muhitini yaxshilashning muhim yo’nalishlaridan biri — “yashil” iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o’tishdir.

Mazkur o’tishni samarali amalga oshirishda “yashil” moliyaviy vositalardan oqilona foydalanish zarur. Shu bilan birga, bunday global o’zgarishlar doimo xalqaro va milliy darajada o’z yechimini talab qiluvchi qator muammolarni yuzaga keltiradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo’yicha chora-tadbirlarni yetarli darajada moliyalashtirmasdan turib amalga oshirish imkonsizdir.

Shu sababli alohida “yashil” moliyalashtirish tizimini yaratish zarurati tug’iladi. Bu borada “yashil iqtisodiyot”, “yashil moliya” va “yashil investitsiyalar”ning nazariy hamda metodologik asoslarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. “Yashil” moliyaviy vositalar nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va iqlim o’zgarishlari bilan bog’liq muammolarni yumshatishda ham hal qiluvchi rol o’ynaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2022 йил 2 декабрдаги ПҚ-436-сон қарори. <https://lex.uz/uz/docs/6303230>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январдаги «Ўзбекистон — 2030» стратегиясини «Атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-16-сон фармони.
3. Sandor R. Good derivatives: a story of financial and environmental innovation. Hoboken: John Wiley & Sons; 2012. 640 p. <https://www.wiley.com/en-us/Good+Derivatives%2C>
4. Khosla S., Eggink E., Gilbert A. Mapping of green finance delivered by IDFC members in 2012. Paris: International Development Finance Club; 2013. — 33 p.
5. Ghoul M.B. Green finance concept: Framework and consumerism. in: Ziolo M., Sergi B., eds. Financing sustainable development. Cham: Palgrave Macmillan. 2019. -P. 299-312. DOI: 10.1007/978-3-030-16522-2\_12
6. Lindenberg N. Definition of green finance. Bonn: Deutsches Institut für Entwicklungspolitik; 2014. -p. 4. <https://www.cbd.int/financial/gcf/definitiongreenfinance.pdf>





7. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х. Яшил иқтисодиёт: Дарслик. /А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев ва бошқалар. –Т.: “Universitet”, 2020. - б. 75.
8. Po'latova S.V. Yashil moliya tushunchasi va uning xalqaro moliya tizimidagi o'rni. Zamonaviy dunyoda ilm fan va texnologiya ilmiy-amaliy konferensiya to'plami materiallari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10073940>
9. Хмыз О.В. Международный опыт выпуска «зеленых» облигаций // Экономика. Налоги. Право. - 2019. - Т. 12, № 5. - С. 132-141.
10. Асатуллаев Х.С., Астанакулов Analysis of investments and directions of investment activation in Uzbekistan // Vol. 8 Issue 6, June 2018, ISSN: 2249 0558 Impact Factor: 7.119 Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>.
11. Асатуллаев Х.С., О.Астанакулов, Н.Саидахмедова, О.Эргашев // 2019. Strategic Support for Accounting for the Investment Process in the Innovation Industry. Journal of Advanced Research in Law and Economics, Volume X, Fall, 6(44): 1877 – 1883. DOI: 10.14505/jarle.v10.6(44).30. Available from: <http://journals.aserspublishing.eu/jarle/index>.
12. Х.Асатулаев, О.Астанакулов, Н.Саидахмедова, Н.Батирова The energy efficiency of the national economy assessment in terms of investment in green Economic Annals-XXI, <https://doi.org/10.21003/ea.V189-03>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)